

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI JIHATLARI

Dustova Laylo Nuriddinovna

*Buxoro viloyat Kogon tuman 9-maktab
Boshlang'ich ta'lim. 99 282-55-30.*

Kurbanova Firuza Yusufovna

*Buxoro viloyat 9-maktab. Kogon tuman
Boshlang'ich ta'lim. 99 565-23-39.*

Dostova Porno Muriddinovna

*Buxoro viloyat. Kogon tuman, 15 maktab.
Boshlang'ich ta'lim. 99 707-05-84*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, ahamiyati, shuningdek sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi bir nechta innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalar haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: malakali o'qituvchi, innovatsion metod, motivatsiya, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar.

Kirish:

Har bir malakali o'qituvchining dars jarayonida foydalanadigan innovatsion metodlari bor bo'ladi. Pedagog bu usullardan o'zining faoliyatining eng asosiy va markaziy masalasi o'quv jarayonida samarali va sifatli tashkil etishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgan sinf hisoblanadi. Bu paytda yosh bolalarning aqliy holati mukammal rivojlanib borishiga katta e'tibor qaratish zarur. Sababi ular endigina maktab ostonasiga qadam qo'yib kelayotgan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirish, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib berishlari zarur bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda innovatsion usullardan samarali foydalanish lozim va yo'nalishlar bo'yicha olimlarimizning dolzarbligi o'qituvchi bugungi hayotga tayyorlash g'oyalari mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Innovatsion metodlar o'qish motivatsiyasini shakllantirishga katta yordam beradigan texnologiyadir. Quyida boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan innovatsion usullar keltirilgan:

1. «Rasmi rebus» usuli. Mazkur metod asosan darsning "Mustahkamlash " qismida qo'lansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod yordamida o'quvchilar shoir ijodiga doir asarlari rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo'ladi. Masalan, rebusda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo'lsa, demak bu yerda shoirning «Tilla

baliqcha» she’ri tasvirlangan bo’ladi. Bu bolalarda aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda qo’l kelishi mumkin.

2. «Tezkor savol-javob» metodi. Ushbu metodni biz darsning "O‘tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so‘rash" qismida qo‘llashni lozim ko‘rdik. O‘quvchilarga o‘tgan mavzun yuzasidan savollar beriladi. O‘quvchilar esa savollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo‘ladi.

3. «Qiziqarli krossvord» metodi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar darsning "Yangi mavzu bayoni" qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo‘l kelishi mumkin. Ya’ni, bunda sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda ishlasalar samaraliroq bo‘ladi.

4. "Loyiha" metodi. Mana shu metod biz darsning «Yakuniy qismi»da qo‘llansa yaxshi bo‘lardi. Chunki, darslikdagi o‘tilgan o‘qish uchun berilgan ma’lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o‘quvchilar keng va to‘liq ma’lumotlar olishi qiyin bo‘lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu usul yaxshi samara berishi mumkin. "Loyiha" metodi o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir.

Natijalar:

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy metodlari o‘tkazish usullariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilish, xohish va istaklarini uyg‘otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini takomillashtirish, muhim ahamiyatga kasb etadi.

Bundan tashqari boshlang‘ich sinflarda "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi", "BBB", "Reklama metodi" kabi metodlar ham o‘quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Metodlarning ahamiyati shundaki, bu bir nechta bosqichni qamrab olganligi hamda o‘quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlarini takomillashtirishga qo‘l keladi.

Yuqoridagi, o‘zida innovatsion pedagogik ruhni singdirgan bunday dars usullari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshiribgina qolmasdan, ulardan mustaqil tadqiqotchilik hamda intiluvchanlik xislatlarining chuqur tomir otishida yordam berishiga ishonchimiz komil. Lekin, mazkur metodlarni qanday vaziyatda yoki qaysi sharoitda qo‘llash, ularni o‘quvchilarga qay tarzda tushuntirib yetkaza olishi o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liqligini unutmasligimiz zarur.

Muhokama:

Maktablarda zamonaviy ta’lim asosida o‘tiladigan bunday dars metodlari o‘quvchilarni har taraflama o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishda, yangi davr kishisini tarbiyalashda, kamolga keltirishda yordam berishi shubhasiz. Innovatsion

texnologiyalardan dars jarayonida o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e‘tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakam ehtiros bo‘ladi.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, dars davomida o‘quvchilarning ta’lim faoliyati innovatsion metodlar yordamida amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi samarali, oson kechadi va ta’lim samaradorligi yanada oshirishga yordam beradi. Bolaning aqli endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda pedagogning mahorati, uning o‘qituvchilik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona talqin qila olishi, ta’limning yangi-yangi usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, turli innovatsion metodlardan foydalanish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya. Metodik qo‘llanma, TDPU, 2007.
2. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta’limda innovatsiya” T;. Istedod- 2010.
3. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang‘ich ta’limning integrastiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma'naviyat.
5. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.
6. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – T., 2001.